

# **Uzbekistan Airways Boshqaruv raisi havo kemasi bortida tug'ruq paytida yordam bergen ekipaj bilan uchrashdi**

**2025 3 Fevral**

Bugun, 3-fevral kuni, Uzbekistan Airways Boshqaruv raisi Shuxrat Xudaykulov 28-yanvar kuni Toshkent – Nyu-York aviaqatnovida tug'ruq qabul qilingandan so'ng e'tibor markaziga tushgan Boeing 787 havo kemasi ekipaji bilan uchrashdi.

Uchrashuv aviakompaniyaning bosh ofisida bo'lib o'tdi. Unda Boshqaruv raisi yo'lovchiga havo kemasi osmonda parvozni davom ettirayotgan vaqtida tug'ruq muvaffaqiyatli o'tishida yordam bergen ekipajning kasbiy mahorati va hamjihatligini yuqori baholadi. Havo kemasi bortida tajribali bortkuzatuvchilar va uchuvchilar, shuningdek, yo'lovchilar orasida shifokorlar – akusher va jarroh bo'lib, ular tug'ruq xavfsiz o'tishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlagan.

Shuxrat Xudaykulov ko'rsatilgan mahorat va jasorat uchun ekipaj a'zolariga minnatdorchilik bildirdi hamda jamoa a'zolariga – uchuvchi-yo'riqchi Ruslan Almamedov, komandir Rustamjon Buribayev, ikkinchi uchuvchilar Botir Niyazov va Sardor Shadjaliyev, katta bortkuzatuvchilar Gulnoza Giyasova va Elnora Abduganiyeva, bortkuzatuvchilar Yekaterina Dolgix, Ibroxim Muhammadaminov, Ramil Xaneyev, Natalya Yugay, Xasanbek Xabibiy, Xudoynazar Abdurayimov, Rayxona Sobirova, Munisa Kurbanova va Shaxnoza Zakirovaga guldaста va faxriy yorliqlar topshirdi.

Ushbu voqeа har kuni parvozning barcha bosqichlarida yo'lovchilarning xavfsizligi va qulayligini ta'minlaydigan Uzbekistan Airways xodimlarining yuqori darajadagi tayyorgarligi va kasbiy mahoratining yorqin namunasidir.







